

МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHDA MUAMMOLI TA'LIMNING O'RNI

Bekmuradova Dilnoza Pirimovna,

Qashqadaryo viloyati Pedagoglarni Yangi Metodikalarga O'rgatish Milliy Markazi
Pedagogika, psixologiya va ta'lif menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqil fikrlash jarayoni, muammoli ta'lif haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga mustaqil fikrlashga o'rgatishda mashg'ulotlar jarayonida foydalilaniladigan muammoli ta'larning o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lif tashkiloti, tarbiyachi-pedagog, tarbiyalanuvchilar, idrok, mashg'ulotlar jarayoni, muammo, muammoli ta'lif, muammoni yechish.

THE ROLE OF PROBLEMED EDUCATION IN TEACHING EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATION TO THINK INDEPENDENTLY

Bekmuradova Dilnoza Pirimovna,

Kashkadarya Region National Center for Training Teachers in New Methodologies
Senior teacher of the department of pedagogy, psychology and educational management

Abstract. This article provides information about the process of independent thinking, problem-based learning. At the same time, the role of problem-based education used in training for independent thinking is highlighted.

Key words. Preschool education organization, educator-pedagogue, students, perception, training process, problem, problem-based education, problem solving.

РОЛЬ ПРОБЛЕМНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИЮ

Бекмурадова Дильноза Пиримовна,

Старший преподаватель кафедры педагогики, психологии и менеджмента образования
Национальный центр по обучению новым методикам педагогов Каракалпакской области

Аннотация. В данной статье представлена информация о процессе самостоятельного мышления, проблемного обучения. При этом подчеркивается роль проблемного образования, используемого в обучении самостоятельному мышлению.

Ключевые слова. Организация дошкольного образования, воспитатель-педагог, воспитанники, восприятие, процесс обучения, проблема, проблемное обучение, решение проблем.

Kelajagimizning har tomonlama bilimdon, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularning aqliy salohiyatlardan unumli foydalanish va yuzaga chiqarish har jihatdan biz pedagog-o'qituvchilarning o'qitish jarayonlarni qanday tashkil etishimiz va qanday sifatiy ko'rsatkichlarga erishishimiz bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda shu yo'nalishda yoshlarga ta'lif-tarbiya beradigan professor-o'qituvchilarning yuksak pedagogik mahoratga, yuqori kasbiy salohiyatga ega bo'lishi, bugungi kun talabalaridan kelib chiqib ta'lif jarayonlarida o'qitishning ilg'or noan'anaviy usullaridan foydalangan holda yoshamizni ko'proq erkin fikrlashlariga, o'z ustida qunt bilan ishlab har tomonlama chuqur bilim olishlariga yo'naltirishlari lozim, bu - davr talabidir.

Ta'lif samaradorligiga erishish tushunchasi pedagoglik faoliyatimizdagi asosiy muammoli masalalardan biri bo'lib, doimiy ravishda o'qitish jarayonlarini qanday tashkil qilsam, qanday saboq bersam, qanday usullardan foydalansam talabalarim fanimni yetarlicha o'zlashtiradilar, ularning qiziqishlarini orttira olaman, degan savollarga duch kelamiz va uning yechimlarini izlaymiz. Shu o'rinda, tajribali pedagoglarimizning o'qitishda fandagi mavzular emas, balki shu mavzularni o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar asosiysi hisoblanadi, degan fikrlari go'yoki mavjud muammoning yechimidek tuyiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'qitishning usullari doimiy yangilanib, rivojlantirilib kelindi va ular amalda qo'llanish xususiyatiga, beradigan ta'limi samarasiga ko'ra biri-biridan tubdan farqlanadi.

Shaxsda mustaqil fikr yuritishni shakllantirish- bu nafaqat keng qamrovli yondoshuvni talab qiladigan ilmiy psixologik muammolardan biridir. Fan va texnikaning bugunki kundagi jadal rivoji, yangicha ta'lif texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etilganligi, mustaqil fikrlashni ta'minlovchi eng qulay va oqilona o'quv jarayonini tashkil etish muammosini dolzarb etib qo'ymoqda .

Mustaqil fikrlash shaxsning xislati sifatida har qanday faoliyat turida individual yoki guruhiy yutuqlarga erishishda yuqori ko'rsatgichni ta'minlaydigan muhim omillardan biri bo'lib, uning fenomenologiyasi talqinida tafakkurning ijodiyligi alohida o'rinn tutadi .

Mustaqil fikrlash jarayonida muammoli ta'limning o'mni juda muhim hisoblanadi. Muammoli ta'lim, rivojlanuvchi ta'lim, muammoli ta'lim maqsadi, vazifalari, vositalari, muammoli ta'lim darajalari, muammoli dars strukturasi.

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'ren olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur.

Bugun jamiyat maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Bizga ma'lumki zamonaviy ta'lim texnologiyasida muammoli ta'lim alohida o'ren tutadi. Muammoli ta'lim texnologiyasining zamirida yoki bir-biriga bog'liq bo'lgan muammolar zanjiri yotadi.

Muammoli ta'lim metodiga asoslangan ta'lim jarayoni quyidagi to'rtta bosqichda amalga oshiriladi.

- Muammoli vaziyat hosil qilish;
- Muammolarni shakllantirish va muammoni yechish uchun umumiyl taxlil qilish;
- Taxmin qilingan yechimni tekshirish;
- Amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo'llash, ularni tartibga solish hamda siyosiylashtirish.

Mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchi muammoni yechar ekan, o'zicha muhim bo'lgan «kashfiyot» qiladi. Bu hol tarbiyalanuvchida o'ziga ishonch hosil qiladi (ya'ni mening kashfiyotim, men topdim, ixtiro qildim)

Mana shu tomoni bilan muammoli ta'lim texnologiyasi boshqa barcha o'qitish texnologiyalaridan ustun turadi. Chunki bunda tarbiyalanuvchi izlanish olib borish, taxlil qilish, empirik xulosa chiqarish, boshqa vaziyatga qo'llash, fikr mulohazalarini taxminan sistemalashtirib isbotlash kelgusida amaliy faoliyatga qo'llash malakalarini egallab boradi.

Muammoli ta'lim an'anaviy o'qitish metodikasiga tayanadi. Tarbiyachi muammoli vaziyatni bolajonlar oldiga qo'yish bilan bir qatorda, uni yechish uchun izlanish zarurligini, izlanish uslublarini bolajonlarga o'rgatadi. Muammo yechimini topish. Izlashga o'tish uchun, eng avvalo zaruriy muxit yaratilishi kerak.

Muammo aniq bo'lishi, tarbiyalanuvchilar o'ni yechimini izlash jarayonida oldingi mavzularda, fanlarda olgan ma'lumotlari, tushunchalari, bilimlaridan foydalana oladigan bo'lishi kerak. Bolajonlar oldiga qo'yilgan muammo o'zining dolzarbligiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyalanuvchi izlanishni ma'lum bir sistemada, muayyanlikda bo'lган muammo ustida olib borish kerak. Shunda tarbiyalanuvchi muammoni tahlil qiladi, qismlarini ajrata oladi va yechish uchun kirishadi.

Ta'lim jarayonini loyihalash bevosita muammoli ta'limni qo'llashga va aksincha, muammoli ta'lim ta'limini loyixalashga olib keladi. Muammoni o'qitish texnologik loyixalashtirilgan o'quv jarayonini amalga oshirishning didaktik konstruktsiyasi sifatida qo'llaniladi.

Muammoni to'g'ri (muayyan masalaga o'xshash, masalalar qanday yechiladi), shaxsiy (muayyan masalada berilgan ob'yekt obraziga kirishga harakat qilish va shu nuqtai-nazardan muloxaza yuritishga urinib ko'rish), simvolistik (ikki jumla orqali masalaning mohiyatini obrazli aniqlashni berish), fantastik (bu masalani ertak qahramonlari qanday yechgan bo'lar edilar).

Muammoli vaziyatni bunday usulda yechishga o'rgatish orqali tarbiyalanuvchilarni sinektik, abstraktsiyalash, fantaziya qilish, o'zgalarni eshitish, oddiydan g'ayri oddiyini, g'ayri oddiydan oddiyini topish, o'xshatishlardan mohirona foydalishni ko'nikmalari shakllantiriladi.

Muammoli ta'lim jarayonida tarbiyachi bolajonlar o'rtasida fikrlar almashishinini boshqarish; ishonchli dalillar asosida o'z fikrida tura olish; muxolif tomonning fikrini munozara qilish, malakasini rivojlantirish; tarbiyalanuvchini faol fikrlash faoliyatiga asoslash, masalani dolzarblashtirish, o'z fikrini bayon qilishnigina emas, balkim boshqalarni ham eshitish mahoratini rivojlantirish, tarbiyalanuvchilar bildirgan fikrlardan foydalani axborotni olish va zarur xulosalar chiqarish va tarbiyalanuvchilar ixtirochilik, tadqiqotchilik, loyihalovchilik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirishdir.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarining izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lган usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq tarbiyalanuvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiyl rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Muammoli ta'lim nazariyasi tarbiyalanuvchi intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash tarbiyalanuvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi tarbiyalanuvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki tarbiyalanuvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Muammoli ta'lim – bu tarbiyalanuvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqaruchi muayyan shaxsiy sub'yektiv yo'llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud:

1. Tarbiyalanuvchilarning tushunchalar tizimini o'zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati.
2. Insonning his-tuyg'usi va emotsiyasiga ta'sir etish, uning bilimini e'tiqodga aylantirish.

Muammoli ta'lim – tarbiyachi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo tarbiyalanuvchilarga faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lib, muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- 1.O'quv materialini muammolashtirish;
- 2.Tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
- 3.Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
- 4.Tarbiyachi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- 5.Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda tarbiyalanuvlarga bayon etish.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, tarbiyalanuvlarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'yekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda tarbiyachi tarbiyalanuvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Tarbiyalanuvchilarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va ulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulot- o'quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir. Hozirgi zamон tarbiyasining barcha jarayonlari tarbiyalanuvlarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir. Tarbiyachilar mashg'ulot jarayonida birinchi navbatda tarbiyalanuvchilardan fanlardan chuqr va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga extiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29-debabrdagi "2017 -2020 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Ilk maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar. T.: 2018
3. "Ilk qadam" MTMning Davlat o'quv dasturi.- T., 2018.
4. "Sifatli maktabgacha ta'limni joriy etishga yangicha yondoshuv" mavzusidagi Davra suhbati materiallari. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi. Toshkent. 2014. -178 b.
5. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik.- T.: Tafakkur bo'stoni. 2013.-288 b.
6. Davletshin M va boshqalar "Yosh va pedagogik psixologiya "T., 2002.
7. Nishanova.Z ,Alimova.G "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T., 2006
8. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovations texnologiyalar. T; 2010-yil.
9. Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. Ped.fan.nom. uchun yozilgan dissertatsiya. Qarshi-2007.